

**ABU HAFS UMAR NASAFIY “TILBATUT-TALABA” ASARI  
QO’LYOZMALARINING HOZIRDA MAVJUD BO’LGAN ZAMONAVIY  
NASHRLARI O’RNI**

*Hafizov Najmuddin Abdurashidovich*

*Renessans ta’lim universiteti “Chet tillari”*

*kafedrasi arab tili fani assistent o’qituvchisi*

Abu Hafs Nasafiy “Tilbatut-talaba” asarining hozirda zamonaviy nusxasi Suriya Arab Respublikasining Damashq shahridagi “Ommaviy fatvolar idorasi” mudarrisi Shayx Xolid Abdurrohman al-Ak tomonidan sharhlanib, nashrga tayyorlangan. Ushbu nusxa Bayrut shahridagi “Dorun-Nafois” nashriyotida nashrdan chiqarilgan. Ushbu nashriyotning manzili Baytur shahri Fardon ko‘chasida joylashgan. Telefon raqami: 009611803152 - 810194. Fax no‘mori esa: 009611861367. Bu kitobning birinchi nashri 1993-yilda, ikkinchi nashri 1995-yilda, uchinchi 1997-yilda, to‘rtinchi nashri 1999-yilda, beshinchi nashri 2010-yilda, oltinchi nashri 2015-yilda, oxirgi nashri esa 2020-yilda nashrdan chiqqan. Undan tashqari bu kitob ushbu nashriyotda doim yangi bosmadan chiqib turganligini ko‘rish mumkin.

Shayx Xolid Abdurrohman al-Ak bu asarni chuqur o‘rganib chiqqan. Bu haqida u kitobning boshlanishida to‘liq aytib o‘tadi. Jumladan, olim “Tilbatut-talaba” asarining qo‘lyozma nashrini tadqiq etish davomida unda kelgan oyat va hadislarning olingan joylarini aniq qilib belgilab chiqqan. Sababi bu kitobning qo‘lyozma nusxasida oyat va hadislар so‘zlarni tushintirishga dalil-isbot sifatida keltiriladi. Ammo, ular qayerdan olinganligi, ya’ni qaysi sura va qaysi hadisdan olinganligini Abu Hafs Nasafiy aniq aytmagan. Allomaning bu kitobini yozish uslubi shunday bo‘lgan. O‘zida bor ilmlar bilan fiqhiy so‘zlarni tushuntirib o‘tadi. Shuning uchun olim Xolid Abdurrohman al-Ak kitobda kelgan barcha oyat va hadislarni aniq ko‘rsatib, ularni oydinlashtirib chiqqan. “Tilbatut-talaba” kitobida kelgan oyatlarni qaysi surada kelganligini aytadi. Oyatlar raqamlari va ularning nima ma’noga dalolat qilishlari hamda qanday sifatlar bildirishini tushuntiradi. Dalil uchun keltirilgan hadislarni esa qaysi muhaddislar rivoyat qilganini va qaysi kitoblarda mavjud ekanligini berib o‘tadi. Mo‘tabar hadis kitoblarida kelgan bu hadislarning hukmlarini ham aytib o‘tadi. Ularni sahih bo‘lsa sahih deb agar zaif hadislар bo‘lsa zaifliklarini yoritgan. Mobodo biror bir so‘zning asli hadis kitoblarining qayerida kelganligini topolmasa, u hadisning asli katta hadis kitoblarida yo‘q, deb yozib qo‘ygan.

Alloma Abu Hafs Nasafiy “Tilbatut-talaba” kitobida keltirgan hadislarni olim Xolid Abdurrohman al-Ak mo‘tabar hadis kitoblarini tekshirib chiqish natijasida, agar u hadislarni katta hadis ulamolari “mavzu” deb aytishgan bo‘lsa, olim doktor Xolid ham ularni “mavzu” deb aytgan. Bundan tushinish mumkinki, Abu Hafs Nasafiy hadis

ilmida ham katta olim bo‘lgan. Juda ko‘plab hadislarni yod bilgan. Hadislardan hukm olish qoidalarini ham bilgan. Fiqhiy so‘zlarning ma’nolarini tushintirib berishda ko‘p hadislardan istinbot etganligi ham Najmuddin Nasafiyning hadis ilmidagi darajasini ko‘rsatadi. U katta muhaddislar qatorida bo‘lgan desak, mubolag’ a bo‘lmaydi. Buni kitobida deyarli hamma so‘zlarni tushuntirish asnosida hadislardan dalil keltirishi ham ko‘rsatadi. Shuningdek, shayx Xolid “Tilbatut-talaba”da keltirilgan hadislarning asl rivoyatini katta usul kitoblaridan topolmasa boshqa kitoblarga ham murojaat qilgan. Agar bu hadisning rivoyat qilgan sanadini topolmasa yoki isnodini topmasa uni rivoyat qilgan sahobani keltirish bilan kifoyalangan.

“Tilbatut-talaba” asarining ikkinchi bir zamonaviy nashri ham mavjud bo‘lin uni doktor Abu Abdulloh Muhammad Hasan Muhammad Hasan Ismoil ash-Shofiiy tadqiq qilgan. Bu zamonaviy nashr ham 1997-yilda Livan Respublikasining poytaxti Bayrut shahrida nashrdan chiqqan. “Dor al-kutub al-ilmiyya” nashriyotida bu ish amalga oshirilgan. Bu nashtiyot manzili Bayrut shahridagi Ramel al-Zarif ko‘chasi, birinchi burilishida, deb berilgan. Fax va telefon raqamlari quyidagicha: 00(9611)60.21.33-36.61.35-36.43.98.<sup>1</sup>

“Tilbatut-talaba” asarining bugungi kunda elektronniy varianti ham mavjud. Uni Pokiston Islom Respublikasi Islomobod shahrida bir olim ishlab chiqqan. Olimning ismi Doktor Ismatulloh Inayatullohdir. Olim bu asarni “al-Jamiyat al-Islamiyyatu al-Ilmiyyatu” nomli dorulfununda amalga oshirgan. Bu haqda kitobning asosiy qismi boshlanishida aytib o‘tilgan.<sup>2</sup> Bu kitobda ham asosiy qismgacha kirish sifatida ba’zi ma’lumotlar berilgan. Ular asosan Abu Hafs Nasafiyning hayoti va ijodiga bag’ishlangan.

“Tilbatut-talaba” asarining bugungi kunda mavjud bo‘lgan toshbosma nusxalari ham bor. Shulardan biri Iroq Respublikasi poytaxti Bog’dod sharida joylashgan “Maktabatul-musanna” nomli nashriyotda nashrga tayyorlangan. Kitob ushbu nashriyotning derektori rahbarligida nashrga tayyorlangan. Nashriyot rahbarining ismi Qosim Muhammad al-Rajab bo‘lib, kitobning oxirgi sahifasida u kishining ismi zikr qilingan. Bu nusxani kim ko‘chirgani noma’lum. Unda ko‘rsatilmagan. “Tilbatut-talaba” asarining boshqa qo‘zyozma va toshbosma nusxalaridan bu kitob faqr qiladi. Sababi bu kitobning kirish qismida juda kam hajmda kirish so‘zları keltirilgan. Unda faqat Abu Hafs Nasafiy o‘zidan keyin qoldirgan mashxur asarlarigina keltirilgan.<sup>3</sup> Bu toshbosma nusxasi hijriy 1311-yil, milodiy 1894-yilda Turkiya Respublikasi poytaxti Istanbul sharida joylashgan “Matbuat al-amira” nomli nashriyotida bosilgan.

<sup>1</sup> Abu Hafs Umar ibn Muhammad an-Nasafiy. Tilbatut-talaba. – Beirut: Dor al-kutub al-ilmiyya, 1997 – 3 b.

<sup>2</sup> Abu Hafs Umar ibn Muhammad an-Nasafiy. Tilbatut-talaba. – Islomobod: Al-Jamiyat al-Islamiyyatu al-Ilmiyyatu, yili ko‘rsatilmagan – 9 b.

<sup>3</sup> Abu Hafs Umar ibn Muhammad an-Nasafiy. Tilbatut-talaba. – Bog’dod: Maktab al-musanna. 1894 – 1 b.

Hozirda “Tilbatut-talaba” asarining ushbu toshbosma nusxasi Kanada davlatining Toronto universiteti kutubxonasida saqlanadi.<sup>4</sup>

Eng qizig’i shundaki, ushbu toshbosmaga asos bo‘lgan “Tilbatut-talaba” asarining asl nusxasi yuqorida ikki zamonaviy nashrlarga ham asos bo‘lgan. Bu haqda Turkiya Diyonat Vaqf tashkiloti saytida aytildi.<sup>5</sup>

Huddi shu kitob yana bir zamonaviy nashr bosmadan chiqishiga asos bo‘lganligining guvohi bo‘lindi. Uni Livan Respublikasi Buqo‘ viloyati muftisi Halil al-Mays al-Lubnoniy tahqiq qilgan. U kishi 1941-yilda Livanda tavallud topgan. Ushbu olim tasnif qilgan “Tilbatut-talaba” asarining zamonaviy nashri ham yuqoridagi ikki zamonaviy kitoblarga o‘xhash tomoni ko‘p. Unda ham tushunishi qiyin bo‘lgan so‘zlarga alohida havolalar orqali tushintirishlar berilgan. Nashrdan chiqqandan so‘ng musulmon o‘lkalarga keng tarqalgan. Buni tahqiq qilgan olim Halil al-Mays al-Lubnoniyning Livan davlatida muftiy lavozimida ishlaganligi ham u olimning ilm saviyasini belgilab beradi. Olim o‘zidan islom ilmlari ichida ko‘p sohalarda kitoblar qoldirgan. Ushbu shayxning o‘z ona yurtida katta ehtirom qilinishining ham guvohi bo‘lindi. “Tilbatut-talaba” asari yuqoridagi ka’bi zamonasining katta-katta olimlari e’tiborlarini tortganligi ham yurtimizdan yetishib chiqqan buyuk olim Abu Hafs Nasafiyning ilmda qay darajada ekanliklarining isbotidir. Livan Respublikasi Buqo‘ viloyati muftisi Halil al-Mays al-Lubnoniy<sup>6</sup> tomonidan tahqiq qilingan “Tilbatut-talaba” asarining ushbu zamonaviy nashri 1986-yili Livan Respublikasi poytaxti Bayrut shahrida nashrdan chiqarilgan.<sup>7</sup>

Xulosa qilib aytish mumkinki, Abu Hafs Nasafiyning ushbu asari dunyoga keng tarqalishining asosiy sababi jahon musulmonlari ulamolarining unga bo‘lgan katta qizishi va talabidandir.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Abu Hafs Umar ibn Muhammad an-Nasafiy. Tilbatut-talaba. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiyya, 1997 – 3 b.
2. Abu Hafs Umar ibn Muhammad an-Nasafiy. Tilbatut-talaba. – Islomobod: Al-Jamiyat al-Islamiyyatu al-Ilmiyyatu, yili ko‘rsatilmagan – 9 b.
3. Abu Hafs Umar ibn Muhammad an-Nasafiy. Tilbatut-talaba. – Bog’dod: Maktab al-musanna. 1894 – 1 b.
4. Abu Hafs Umar ibn Muhammad an-Nasafiy. Tilbatut-talaba. – Istanbul: Matbuat al-amira. 1894 – 177 b.
5. NESEFÎ, Necmeddin - TDV İslâm Ansiklopedisi ([islamansiklopedisi.org.tr](http://islamansiklopedisi.org.tr)).
6. Abu Hafs Umar ibn Muhammad an-Nasafiy. Tilbatut-talaba. – Bayrut. Nashriyoti berilmagan. Halil al-Mays al-Lubnoniy tomonidan tahqiq qilingan nusxasi. 1986-yil.

<sup>4</sup> Abu Hafs Umar ibn Muhammad an-Nasafiy. Tilbatut-talaba. – Istanbul: Matbuat al-amira. 1894 – 177 b.

<sup>5</sup> NESEFÎ, Necmeddin - TDV İslâm Ansiklopedisi ([islamansiklopedisi.org.tr](http://islamansiklopedisi.org.tr)).

<sup>6</sup> NESEFÎ, Necmeddin - TDV İslâm Ansiklopedisi ([islamansiklopedisi.org.tr](http://islamansiklopedisi.org.tr)).

<sup>7</sup> Abu Hafs Umar ibn Muhammad an-Nasafiy. Tilbatut-talaba. – Bayrut. Halil al-Mays al-Lubnoniy tomonidan tahqiq qilingan. 1986.